



USTYURTDAGI UNUTILGAN BEKAT

Nurbayev Oraz Auelbay o'g'li
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn
Instituti San'atshunoslik va amaliy san'at fakulteti San'at asarlari va me'moriy
yodgorliklarni ta'mirlash yo'nalishi 1-bosqich magistratura talabasi

Har qanday shaxs O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir. (O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 49-modda.)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan Beleuli karvon-saroyi tarixi va me'moriy tuzilish haqida bayon etilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijalari va uning qurilish davri haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek Beleuli karvon-saroyining bugungi holati va uni asrab-avaylash zaruriyati ham yoritilgan

Kalit so'zlar. Qoraqalpog'iston, Ustyurt platosi, Ipak yo'li, Me'morchilik, Beleuli, Karvon saroy

O'zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston hududida ko'plab me'moriy yodgorliklar, qadimiy qal'a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo'lib ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi ob'ektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatda nafaqat yodgorliklarni tiklash ishlari orqali madaniy merosni saqlashga, balki milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga va jahon madaniyatida tan olinishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ming yillar mobaynida, minoralar va qadimiy gumbazlar ko'plab shaharlarning tashrif qog'ozi, shahar manzaralari, ularning diniy va ma'rifiy muassasalari-masjid va madrasalarining go'zal aksiga aylandi. O'zbekistonda, qadimiy me'morlarning ushbu noyob asarlari, bebaho madaniy meros ob'ektlari sifatida maxsus maqomga ega bo'ldi va ular davlatning alohida muhofazasi ostida.



Bizgacha qadimiy me'morchilikning bir qancha durdonalari, jumladan, karvon saroylar, maqbaralar, masjidlar va minoralar saqlanib qolgan. Rang-barang mozaikalar, diniy ramzlar, mavhum geometrik naqshlar ham O'zbekiston me'morchiligiga xosdir. Qadimdan Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan tarixiy shaharlariga ega bo'lgan yirik madaniy joylar shakllangan O'zbekiston hududida o'ziga xos viloyat me'morchilik maktablari rivojlangan. Xususan Qoraqalpog'iston Respublikasining tarixi xalqning uzoq o'tmishi bilan tanishishga imkon beradi. Asosan, uning izlarini antik davr me'moriy yodgorliklari-da, emas, Tuproq-qal'a Xorazm sivilizatsiyasiga, oid devoriy tasvirlarda ko'rish mumkin. Qoraqalpoqlar san'atining sarchashmalari Sharqiy Yevropa va Osiyo qadimiy madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Qoraqalpolarda xalqning o'ziga xos etnik xususiyatlari gilam va kashta buyumlarida yaqqol aks ettirilgan. Ularga qo'shni bo'lgan xalqlar orasidan qoraqalpolarda ko'proq turkman bezaklari va naqshlariga yaqinlik seziladi. Ularda qadimdan movut va fil suyagi bilan qadama naqshli yog'och o'ymakorligi rivojlangan. Qoraqalpog'iston hududida antik, o'rta asr va yangi davrlarga oid me'morlik yodgorliklari mavjud. Me'morlik va tarixiy yodgorliklardan 237 tasi ro'yxatga olingan, ulardan 145 tasi arxeologiya, 25 me'morlik va 67 tasi monumental yodgorliklardir. beruniy tumanidagi Sulton Uvays Bobo (P-14-asrlar), kechirmas Bobo (17- 19-asrlar); To'rtko'l tumanidagi Qalan-dardag' (18-19-asrlar). Norinjon Bobo (12-14-asrlar) majmualari, Xo'jayli tumanidagi Mazlumxon Sulu va Mizdahqon (11 –19-asrlar); Qo'ng'iro't tumanidagi Beleuli (12- 14-asrlar). davut Ota maqbarasi; Mo'ynoq tumanidagi Hakim Ota maqbarasi va qabristoni, Ellikqal'a tumanidagi Ayoqzal'a-1 va Ayoqzal'a-2 (3-8-asrlar), Tuproqqal'a (3-asr) eng muhim yodgorliklardir.

Jumladan, Beleuli Karvon saroyi — O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Arxeologiya yodgorligi. XII—XIV asrlarga tegishli bo'lib. Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't tumanida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan.






Karvonsaroy — karvonlar to‘xtab, tunab o‘tadigan rabot, saroy. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Zakavkazye shaharlari savdo yo‘lida barpo etilgan. Karvonsaroilar, odatda, o‘rtada katta hovli, atrofi bir-ikki qavatli hujralar bilan o‘ralgan, minorali qal‘aband istehkom shaklida bo‘lib, savdo manzillarida va shahardagi bozorlar (tim va toqlar) qatoriga qurilgan. IX—XVIII asrlarda shaharlarning o‘sishi va karvon savdosining kuchayishi natijasida karvonsaroilar ko‘plab bunyod etilgan. Arab sayyohlari Istahriy va ibn Xavqallarning ma‘lumotiga ko‘ra, X asrda savdo markazi hisoblangan Movarounnahrda 10 mingdan ortiq karvonsaroilar bo‘lgan (Raboti Malik, Doya xotin karvonsaroyi, Ollaqulixon karvonsaroyi). Temir yo‘l va boshqa zamonaviy transport rivojlanishi natijasida karvonsaroilar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan.¹

Beleuli karvonsaroyi 1 metr qalin devorlar bilan o‘ralgan. Devorlar bundan 30 million yil avval mavjud bo‘lgan Tetis ummonidan qolgan chig‘anoqtoshlardan qurilgan. Karvonsaroyga kiraverishida eni 3,8 metrlik darvoza ham bor.

Taxminan balandligi 8 metr bo‘lgan 2 ta ustun va darvoza saqlanib qolingan. Darvozaning ark ko‘rinishidagi ustki qismi qizil g‘isht bilan qoplangan, eshiklarning balandligi 7,66 metr bo‘lib, ikkita sherlarning barelyef tasviri tushirilgan. Sherlar o‘ng old oyoqlarini ko‘tarib, orqa oyoqlarida turgan, hurpaygan dumlarini orqalariga tashlagan holatda tasvirlangan. Hozirda sherlar tasviri tushirilgan terrakota mavjud emas. Mahally aholi so‘ziga ko‘ra, chet ellik sayyohlar peshtoqdagi ikkita sher tasviri tushirilgan terrakotani qo‘porib, o‘zlari bilan olib ketishgan. Karvonsaroyning burchaklari diametri 3 metrli minoralar bilan mustahkamlangan. Beleuli karvonsaroyi 2 qavatli, 14 xonali, har qavatiga 7 tadan isitish tizimiga ega bo‘lgan. Karvonsaroy hovlisining markazida quduq joylashgan.

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi – O‘zbekiston Respublikasida chiqarilgan 12 jildli universal milliy ensiklopediya. Ensiklopediya kirill yozuvida yozilgan. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr etilgan. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi dagi aksar maqolalar Sovet davrida chop etilgan 14 jildli O‘zbek sovet ensiklopediyasidan olingan.



Bir paytlar portal-darvozaning old tomonida Registondagi Sherdor madrasasidagi kabi ikkita sherning rasmi bo‘lgan. Lekin bugungi kunda Beleulining “sherlari” noma’lum yo‘lovchilar tomonidan olib ketilgan, portal-darvozaning yuqori qismidagi arka esa qulab tushgan.



Karvonsaroyning tosh devorlarida paleografik yozuvlar, petroglif rasmlar bor. Ularni shu yerdan qo‘nim topgan yo‘lovchi, sayyoh, savdogarlar yozib qoldirgan. Ularning orasida eski lotin harflarida bitilgan yozuvlar ham bor.

Ustyurt platosi, Xorazmdan Volga bo‘yigacha bo‘lgan qadimiy karvon yo‘li, Birinchi marta 1946—1950-yillarda Sergey Pavlovich Tolstov rahbarligida SSSR FA Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan. 1982-yilda Qozog‘iston yodgorliklarni loyihalash va tiklash qo‘mitasining ekspeditsiyasi (rahbari A. To‘xtaboyev) tomonidan



o'rganilgan.² Karvonsaroy o'rta asrlarda Orol va Kaspiy dengizlari oralig'ida Ustyurt orqali Saroychiq shahridan Xivaga boradigan karvon yo'lida paydo bo'lgan.

Shuningdek, Beleuli karvonsaroyi – Qozog'istonda Xitoy va G'arbiy Yevropani bog'lovchi eski savdo yo'lida joylashgan tarixiy binodir. U 18-asrda qurilgan va ko'p yillar davomida Xitoydan yuk olib ketuvchi savdo karvonlari uchun to'xtash joyi bo'lib xizmat qilgan.

Karvonsaroy qadimgi Qozog'istonning xo'jaligi va savdosining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish imkonini beruvchi tarixiy ahamiyatga ega inshootdir. U sayohatchilarni dam olishlari, davolanishlari, otlari va tuyalarini joylashtirishlari mumkin bo'lgan yopiq kvartiralar bilan ta'minlash uchun yaratilgan. Karvonsaroy ichida mehmonlar xonalarni, raqs zallarini va asosiy tovarlar sotiladigan do'konlarni egallashi mumkin bo'lgan qavatli binolar qurilgan. Bundan tashqari, u yerda poyabzal ta'mirlash, kiyim tikish, ot ta'mirlash bo'yicha mutaxassislar ishlagan.

Karvon yo'lida sodir bo'lgan faol savdo bu hududga savdogarlar, sanoat va boshqa tadbirkorlarni jalb qilgan. Bunga nafaqat atrofdagi hududlarning qulay iqlimi va unumdor tuproqlari, balki asosiy savdo yo'lidagi strategik joylashuvi ham sabab bo'lgan. Chet ellik savdogarlar bu yerga bitimlar tuzish, narxlarni kelishish va tovar ayirboshlash uchun kelishgan.

Hozirda Beleuli karvonsaroyi Qozog'istonning madaniy merosidir. U ko'p yillar davomida vayronagarchilik va yong'inlardan halos bo'lish natijasida qayta tiklandi. Bu nafaqat sayyohlarni, balki Qozog'iston tarixi va madaniyatini o'rganuvchi olimlarni ham o'ziga jalb qiladi. U ko'p asrlar davomida gullab-yashnagan iqtisodiyot va madaniyat uchun sharoit yaratgan qadimiy me'morchilik namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Beleuli karvonsaroyi Qozog'istonning madaniy yodgorligi bo'lib, bu yerda ko'p asrlar davomida rivojlangan savdo va yuk tashish tizimining samarali tizimidan dalolat beradi. Unda xalqaro savdoni tashkil etishning asosiy tamoyillari, shuningdek, Qozog'istonning jahon iqtisodiyotidagi tarixiy o'rni ko'rsatilgan.³

Bugungi kunda o'rta asrning ajoyib merosi Beleuli karvonsaroyi insoniyat mehriga muhtoj. Esdalikni saqlab qolish bo'yicha shoshilinch choralar ko'rilmasa, tabiat va odamzod injiqliklari tufayli yana bir bebaho yodgorlik yo'qsizlikka yuz tutishi mumkin. Eng asosiysi darvozaning oldi tamonida joylashgan sher rasmi tushirilgan terakotlarni kimlar olib ketti yoki (o'g'irlab) ketti, va u hozir qayerda? Nima bo'lganda

² Караван-сарай Белеули.

Событийный туризм в Каракалпакстане.

³ “БИЛЕУЛИНСКИЙ КАРАВАН-САРАЙ в Казахстане” (2023-yil 25-may).



ham bunday bebaho merosni asrab qolish va kelajak avlodga yetkazib berish bizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.S. P. Tolstov Eski Xorazm ekspeditsiyasi, 1948
- 2.https://uz.wikipedia.org/wiki/O‘zbekiston_me’morchiligi
- 3.<https://society.uz/uz/spec-projects/architecture>
- 4.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqalpog‘iston>
- 5.Qazaq ensiklopediyasi, Almaty, 2004.
- 6.Madaniy meros agentligi Arxiv bolimi
- 7.Wikipedia.uz
- 8.Daryo.uz
- 9.Xabardor.uz
- 10.silkadv.com
- 11.https://uz.wikipedia.org/wiki/Bileuli_karvonsaroyi